

NEVROZ QANDAY KASALLIK VA TIBBIYOT XODIMINING PSIXOLOGIK YONDASHUVI

Olimjonova Ziyat Bobomurod qizi

*Toshkent tibbiyot akademiyasi Pedagogika,
psixologiya va tillar kafedrasida o'qituvchisi*

Otabekova Dilnoza Umidjon qizi

Toshkent tibbiyot akademiyasi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola insonlar hayotida uchrab turadigan psixologik kasalliklar, nevroz va uning etiologiyasi, kasallikning tahlili va tibbiyot xodimlarining bemor bilan munosabatidagi psixologik yondashuvini o'rganishga qaratilgan.

Kalit so'zlari: Nevroz, psixoanaliz, psixoanalitik nazariya, psixomotsiya, tibbiyot hodimi yatrogeniyasi, psixoterapevt, etiologiya

Аннотация: Данная статья направлена на анализ психических заболеваний, неврозов и их этиологии, анализ болезни и психологического подхода медицинского персонала в их отношениях с больным.

Ключевые слова: неvroz, психоанализ, психоаналитическая теория, психоэмоция, ятрогения медицинского работника, психотерапевт, этиология

Abstract: This article aims to analyze the psychological diseases, neurosis and its etiology, analysis of the disease and the psychological approach of the medical staff in their relationship with the patient.

Key words: Neurosis, psychoanalysis, psychoanalytic theory, psychoemotion, iatrogeny of a medical worker, psychotherapist, etiology

Nevroz-inson xulq atvorining ildizida chuqur tashvishni boshqarish uchun avtomatik ongsiz haraklar, uzoq davom etadigan ruhiy azoblar, hislar zo'riqishlar, psixomotsional salbiy o'zgarishlar, berilgan ruhiy zarbalar natijasida nerv sistemasi faoliyatining buzilishidan kelib chiqadigan asabiy-ruhiy kasallikka aytiladi.

Nevroz holatining etiologiyasi. Uzoq davom etib kelgan asabiy ruhiy zarbalar, o'zaro bir-biriga yaqin bo'lgan funktsional guruhdagi ruhiy kasalliklar (nevrasteniya, isteriya, psixasteniyalar), emotsional o'zgarishlar, aqliy jihatdan toliqish, tashvish, ruhiy tushkunlik, inson hayotining sharoitlariga to'g'ri kelmaydigan baxtsizliklar, iztirob hissi, ruhiy salomatlik muammolari, infeksiyon kasalliklar, jarrohlik amaliyotlariga tayyorgarlik jarayoni va undan keyingi jarayon, jarrohlikdagi umumiy og'riqsizlantirish vositalaridan keying holati, kuchli psixik travma, yoki ayollarda kechuvchi klimaks jarayoni, tug'ruq jarayonidan keyingi depressiya, bolalikdagi

ishonchsizlik, qoniqtirilmagan sog'inch va jinsiy yoki ruhiy tajovuzkorlik natijalarida kelib chiqadi

Nevroz atamasi 1790-yillardan beri qo'llanib kelinadi. O'sha paytlari bu so'z keskin mantiqsiz bo'lgan aqliy, hissiy, jismoniy reaksiyalarni asab-ruhiy og'riqlarni ta'riflashda ishlatilini kelangan. Biroq 1980-yilga kelib Amerika Psixiatriya Assotsiatsiyasi ruhiy kasalliklar mezonlarini standartlashtirish o'tkazilgan yangilanishning bir qismi sifatida diagnostika qo'llanmasidan nevroz atamasini olib tashlagan. Bugungi kunda Amerika psixiatriya Assotsiatsiyasi nevroz to'liq mustaqil ruhiy holat deb qaramaydi. Buning o'rniga shifokorlar nevrozni tashvishlanishning buzulishi bilan bir darajaga qo'yadi.

Bir qator olimlar nevrozni o'rganish uchun olib borgan ilmiy ishlari natijasida "Psixoanalitik nazariya" ga asos solishadi. Bunga ko'ra nevrozlar intrapsixik to'qnashuvlar ya'ni, ongning turli qismlarida mavjud bo'lgan turli xil drayvlar, impulslar, motivlar o'rtasidagi ziddiyatlar natijasida yuzaga keladigan holat hisoblanadi. Avstriyalik nevrolog Zigmund Freyd tomonidan asos solingan psixoanalitik nazariyaning markazida ongning ongsiz qismining mavjudligi tahmin qilingan. U boshqa funksiyalar qatorida qabul qilib bo'lmaydigan bostirilgan fikr-hayollar, his-tuyg'ular va xotiralar uchun ombor vazifasini bajaradi. Ushbu bostirilmagan fikr hayollarga og'riqli xotiralar, hissiy yo'qotishlar tajovuzkor istaklar, ushalmagan orzular ham bo'lishi mumkin. Ongning ongsiz qismiga tashvish bostirilgan fikrlar va qabul qilib bo'lmaydigan drayvlar ongga tushishi bilan tahdid paydo bo'ladi. Xavotirdan kelib chiqqan holda, ongning ongli qismi repressiya, inkor etish, himoya mexanizmlarini qo'llash orqali tashvishni, bostirilgan ruhiy tarkibning ongga paydo bo'lishini chalg'itishga harakat qiladi. Agar ongga bular ta'sir ko'rsata olsa yoki ongning himoya mexanizmi ishga tushirilmasa nevroz kelib chiqadi. Bemorga tashxis qo'yishda psixoanaliz muhim ko'rsatkich sanaladi va bu bemor bilan bo'lgan suhbatda yoki tibbiy psixologik diagnozda oydinlashadi.

Xo'sh nevroz terapevtik bemormi yoki psixologik yordamga muhtoj sanaladimi?

Aslida nevroz nevroz qanday kasallik desak, Nevrozda hech qanday jismoniy o'zgarish yuz bermaydi. Masalan terapevtik kasallik deb pnevmoniyani oladigan bo'lsak, bemor shifokor huzuriga hansirash, tez-tez nafas olish, umumiy holsizlik, va kuchli nam yo'taldan shikoyat qiladi. Bunda aniq bir shikoyat va uni umumiy ko'rigi, qo'shimcha tahlillar bilan tashxislash mumkin. Masalan qo'shimcha tahlilda umumiy qon tahlilida leykositlar miqdori oshganligi, ECHT miqdori ko'tarilgani va rentgenografiyada o'pkadagi o'zgarishlarni kuzatish mumkin. Shu bilan birga bemor shifokor vaqtda murojat qilmasa yoki shifokorning yo'l qo'ygan yatrogeniyasi oqibatida bemor o'lim darajasigacha boradi. Bunda shifokor yatrogeniyasiga anamnez yig'ishdagi no'to'g'ri olib borilgan munosabat, e'tiborsizlik va davolash chorasidagi xatoliklar bo'lishi mumkin. Endi nevrozni oladigan bo'lsek unda bemorning shikoyati

umumiy holsizlik, jismoniy jihatdan sog' bo'lsada, og'riqlar kuzatilayotgani, ishtahasizlik borligini aytadi. Agar shifokor bemor bilan bo'layotgan suhbatda sinchkovlik bilan savol javob qila olsa 1chi ko'rikni o'zidayoq bemorga to'g'ri tashxis qo'yishga erishiladi. Bunda shifokordan bemorga to'g'ri psixologik muloqotda bo'lishi, uning temperamentiga tusha olishi va eng muhimi bemorni davolay olishiga ishontira bilishi shu bilan birga to'g'ri psixologik yordamga yo'naltira olish ahmiyatlidir. Bu jarayon shifokordan mukammal egallangan amaliy psixologik bilim-ko'nikmalar talab etiladi. Hamda nevrozda o'lim haolati deyarli kuzatilmaydi. Shundan kelib chiqib nevrozga tashxis qo'yishda qo'shimcha tahlillar yo'qligi bilan ajralib turadi va unga tashxis qo'yish bilan birga davolash bir muncha murakkab jarayon va katta tajriba talab etadi.

Xulosa qilib aytsak, nevroz uzoq yillar davomida olingan ruhiy zo'riqish, zarba, bosim, psixoemotsional o'zgarishlar, ongning ongsiz qismida yig'ilgan drayvlar, tajovuzkorlik istaklari, bolalikdagi qondirilmagan xohishlar va boshqa bir qancha infeksiyon kasalliklar, jarrohlik amaliyotlari, tug'ruqdan keyingi depressiyalar keltirib chiqarar ekan. Bunda nevroz ham ruhiy-asab va terapevtik bemor sanaladi. shuning tibbiyot hodimidan psixologik yondashuv talab qilinadi. Bu bemorga aniq tashxislash imkonini beradi, uni ishontira oladi.

Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. Karimovna, N. Y. (2022). YOSHLARDA INTERNETGA TOBELIK MUAMMOLARI. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(12), 96-99.
2. Xudoynazarovich, E. A., & Ulug'bekovich, X. O. (2023). BEMORLARDAGI JARROHLIK OPERATSIYASIDAN OLDINGI VA KEYINGI PSIXOEMOTSIONAL HOLATLAR. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 18(1), 89-92.
3. Rustamovna, A. S. (2023). XOTIRA BILAN BOG'LIQ KASALLIKLARNI DAVOLASHDA PSIXOLOGIYANING O'RNI. *Journal of new century innovations*, 26(2), 17-19.
4. Baxtiyor o'g'li, M. R. (2023). TIBBIYOT SOHASIDA KONFLIKTLARNI OLDINI Olishga qaratilgan strategiyalar. *Journal of new century innovations*, 26(2), 20-21.
5. Ravshanovna, R. Z. (2023). PSIXOLOGIK KASALLIKLAR. *Journal of new century innovations*, 26(2), 22-24.
6. Akramovich, A. A. (2023). KASALLIKLARNI DAVOLASHDA PSIXOLOGIK YONDASHUVCNING AHAMIYATI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 17(5), 33-35.

7. Baxtiyarovna, S. D. B. D., & Orifjonovna, Q. H. (2022). KASB TA'LIM METODIKASINING ZAMONAVIY METODLARI. *Scientific Impulse*, 1(3), 417-420.
8. Akhmedova, M. T., Narmetova, Y. K., Nurmatova, I. T., & Malikova, D. U. K. (2022). Communicative Competence Formation in Future Teachers Based on an Integrated Approach. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 9(4), 54-60.
9. Karimovna, N. Y., & Shuhrat O'g'li, R. S. (2023). SHIFOKOR VA BEMOR O'RTASIDAGI SHAXSLARARO MUNSOBATNING O'ZIGA XOSLIGI. *Scientific Impulse*, 1(8), 695-700.
10. Baxtiyarovna, S. D., & Ziyat, O. (2023). PSIXOSOMATIK KASALLIKLARIDA QO'LLANILADIGAN PSIXOPROFILLAKTIK USULLAR. *Scientific Impulse*, 1(8), 861-864.
11. Ziyat, O., & Nafosat, S. (2023). PSIXOLOGIYADA ONG VA ONG HAQIDAGI NAZARIYALAR. *Scientific Impulse*, 1(8), 857-860.
12. Murodjon Oktam og, F. (2023). OILADA KONFLIKTLARNI YUZAGA KELISH SABABLARI VA ULARNI OLDINI OLISHGA QARATILGAN CHORA TADBIRLAR. *Journal of new century innovations*, 27(2), 46-49.
13. G'ayratovich, K. B., & Mirzohidovich, M. M. O. (2023). XOTIRA RIVOJLANISHINING ASOSIY OMILLARI VA SHART-SHAROITLARI. *Journal of new century innovations*, 27(2), 54-57.
14. Baxtiyor o'g'li, M. R. (2023). TIBBIYOT SOHASIDA KONFLIKTLARNI OLDINI OLISHGA QARATILGAN STRATEGIYALAR. *Journal of new century innovations*, 26(2), 20-21.